

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Abduxalimov</b>	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
<b>F.K.Yusupjanova</b>	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rGANISH .....	217
<b>F.M.Mamadjanov</b>	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari .....	227
<b>M.Komilova</b>	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish .....	233
<b>A.A.Abduxalimov</b>	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
<b>I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova</b>	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoiy xossalari .....	242
<b>S.M.Isroilova</b>	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonoda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
<b>Sh.V.Djalolov</b>	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining manoringi .....	253
<b>A.A.Qambarov</b>	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari .....	260
<b>D.T.Samatov</b>	
Falsafa fanini o'qitishda multimedaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi .....	265
<b>A.U.Azimov</b>	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni .....	269
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash .....	275
<b>D.A.Mamajonova</b>	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari .....	279
<b>M.M.Mamadaliyeva</b>	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili .....	282
<b>U.O'.Musoyev</b>	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi .....	286
<b>D.Y.Tashnazarov</b>	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiylar va maxsus tayyorgarligi .....	291
<b>M.M.Alimova</b>	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati) .....	299
<b>R.Sh.Bozorova</b>	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni .....	303
<b>E.X.Zoirov</b>	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi .....	307
<b>A.S.Inomov</b>	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi .....	311
<b>I.S.Aslonov</b>	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi .....	316
<b>B.M.Jo'raquziev</b>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari .....	320
<b>O.Radjabov</b>	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi .....	324
<b>Y.Shukurillaev</b>	
Sho'ro Rossiysi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili .....	330
<b>M.M.Mamatkodirov</b>	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar .....	333
<b>M.Sh.Qoraboeva</b>	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili .....	338

## YA'QUBI CHARXIYNING "TAFSIRI" DA PIR-MURSHID TUSHUNCHASI

## КОНЦЕПЦИЯ МАСТЕРА-УЧЕНИКА В «ТАФСИРЕ» ЯКУБИ ЧАРХИ

## THE CONCEPT OF THE MASTER-STUDENT IN "TAFSIR" BY YAKUBI CHARKHI

Zoyirov Erkin Xalilovich<sup>1</sup><sup>1</sup>Zoyirov Erkin Xalilovich— Buxoro muhandislik texnologiya instituti dotsenti,  
falsafa fanlari nomzodi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Ya'qubi Charxiyning tasavvuf pirlarining suhbatlari hamda ustoz-shogirdlik munosabatlari haqida "Tafsiri Ya'qubi Charxiy" risolasidan ma'lumotlar keltirilgan. Mutasavvif qarashlarida inson o'zini anglagandan so'ng ustozlar o'rgatgan shariat ilmlarini egallab, Xudodan qanaqa ne'mat bo'lsa, o'sha bilan yashashi lozim. Bu fikr bilan insonni haqiqiy inson bo'lib shakllanishida uning jamiyat orasida bo'lishi va yaxshi insonlar bilan suhbat qilishini ahamiyati katta ekanligi ta'kidlanadi. Ya'ni, pir bilan suhbat orqali murid Allohga olib boradigan yo'lg'a chiqadi.

**Аннотация**

В этой статье собраны сведения из памфлета «Тафсири Якуби Чархи» о беседах мистиков Якуби Чархи и отношениях учителя и ученика. Согласно суфийским взглядам, после реализации себя человек должен усвоить шариатские знания, которым его учили его учителя, и жить с теми благами, которые он имеет от Бога. Данной идеей подчеркивается, что в становлении человека как настоящей личности большое значение имеет нахождение в обществе и общение с хорошими людьми. То есть через беседу мюрид выходит на путь, ведущий к Богу.

**Abstract**

This article contains information from the pamphlet "Tafsiri Yakubi Charkhi" about the conversations of the mystics Yakubi Charkhi and the relationship between teacher and student. According to Sufi views, after realizing oneself, a person must learn the Sharia knowledge that his teachers taught him, and live with the blessings that he has from God. This idea emphasizes that in the development of a person as a real person, being in society and communicating with good people is of great importance. That is, through conversation, the murid enters the path leading to God.

**Kalit so'zlar:** ustoz, shogird, unsiya, pir, zikr, ilmi zohir, ilmi botir, til ilmi, qalb ilmi, vuqufi adadiy, vuqufi qalbiy.

**Ключевые слова:** учитель, ученик, унсиа, пир, зикр, захирическое (внешнее) знание, ботинических (внутренних), учения языка, познания души, числовое (ададий) знание, душевное (калбий) знание.

**Key words:** teacher, student, unsia, feast, dhikr, zahiric (external) knowledge, botinic (internal), teachings of the language, knowledge of the soul, numerical (adadiy) knowledge, spiritual (qalbiy) knowledge.

**KIRISH**

Vujudi kasal odamlar o'z kasalligini bilmasdan o'zlarini soppa-sog' deb o'ylab, tabibning maslahatlarini olmagani kabi ruhan kasal odamlar ham o'zlarini soppa-sog' deb o'ylab, ustozining nasihatlariga quloq solmaydilar. Maqsadni amalga oshirishda jahd va g'ayrat mo'ljallangan ishni bajarishda zo'r ta'sirga egadir. Nazariy bilimlarni ustozlar hamda hikmatlar o'rgatadilar.

Har bir inson tabiatiga ko'ra o'z ehtiyojlarini qondirish va kamol topishi uchun juda ko'p narsalarga, ya'ni kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kitoblar, ustozlarga, do'stlarga ehtiyoji bo'ladi. Inson barcha zarur narsalarni bir o'zi hosil qila olmaydi, bularni topish uchun turli kasbdagi odamlarning xizmatiga muhtojlik sezadi.

Tasavvuf ta'llimotida ustoz shogirdlik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLИ VA METODLAR**

Islom olamida Qur'oni Karimga juda ko'p tafsirlar yozilgan. "Tafsir" arabcha so'zdan olingan bo'lib, "sharh", "izoh" "matnning ma'nosini ochib berish" va "ravshan qilish" ma'nolarini anglatadi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, XV asrgacha bo'lgan tafsirlar asosan arab tilida yozilganini ko'ramiz. Naqshbandiya tariqatining namoyondasi Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri Charxiy" risololasi Markaziy Osiyoda fors tilida yozilgan dastlabki tafsirlardan hisoblanadi. Mutasavvif Qur'onning bиринчи surasi "Fotiha"dan so'ng, 67 suradan to 114 suragacha tafsir qildi. Buning sababini u quyidagicha tushuntiradi: "Menden bir guruh do'stlar, birodarlar "Fotiha"ga hamda "Mulk" surasidan to Qur'on kitobning oxirigacha katta-kichik foydalana olishlari uchun fors tilida tafsir yozib berishini ittimos qildilar"- deb ta'kidlaydi. Demak, Ya'qubi Charxiy ittimos qilgan suralarni tafsir qilgan.

Mutasavvif tafsirini tasavvufiy yondashib, mutasavviflarning fikrlaridan foydalanib, ulardan iqtiboslar keltiradi. Ya'qubi Charxiy o'zining g'oyalarini boshqa mutafakkirlarning qarashlaridan alohida ko'rsatish uchun "in faqir meguyad" (bu faqir aytadi) degan tushunchani qo'llaydi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ya'qubi Charxiy ustoz shogirdlik masalasini "Tafsiri Ya'qubi Charxiy" risolasida ham tahlil etgan. "Noziot" – sug'uruvchilar, degan ma'noni anglatib, bu yerda tanadan jonnini sug'urib oluvchi farishtalar nazarda tutilgan. Surada qiyomat qoyim bo'lish jarayoni, Muso (a.s.) bilan Fir'avn o'rtasida o'tgan mojarolar, bu dunyoning foniylarini kabi ilohiy o'gitlar bilan birga Payg'ambar (a.s.)ning dillariga tasallli berilgan.

**فَمَّا مِنْ طَغَىٰ  
بَاسٌ، وَشَانِدَا كِيمْكِي (دُنْيَوْدَة) هَادِدَانْ أَشْهَانْ  
وَأَثْرَ الْحَيَاةِ الدُّنْيَا  
وَالْجَهَنَّمُ فِي الْمَأْوَىٰ  
وَهُوَ حَدَّا، فَاقْتَطَعَ جَاهَنَّمَيْنَ (عَنْهُ)  
مَاكُونْ بَوْلُورْ. [1,583]**

Mutasavvif "Nozi'ot" surasini irfoniy tahlil qilib, ustozlari Bahouddin Naqshband va Xoja Alouddin Attorning o'gitlarini keltiradi. Pirimiz (Bahouddin Naqshban) bajargan ibodatdan tashqari qilingan ishlar bilan maqtanish nafsning bir turidir. Ya'qubi Charxiy tafsirda birinchidan, solih insonlar, ustozlar hayotiy tajribasidan ibrat olishligini ikkinchidan, ustozining ruxsatsiz har qanday ishni qilmaslikni tahlil qiladi. Mutasavvif ustozining o'rgatgan quyidagi o'gitini keltiradi: "Hech qanday pishgan uzum qayta g'o'raka aylanmaydi, hech qanday pishgan meva qayta xom bo'lmaydi". Demak, shogird ilm olishda munosib, katta tajribaga ega bo'lgan ustozni tanlashi, uning ruxsatsiz har qanday yo'lga kirmasligi hamda hech qachon adashmasligi va xatoga yo'l qo'ymasligi ta'kidlanadi.

Ustoz shogirdga nisbatan shafqatli bo'lishi va ularga o'z bolalari kabi muomala qilishi kerak. Rasululloh (s.a.v.): "Ota o'z farzandiga qanday bo'lsa, men ham sizlar uchun shundayman", deganlar. Bu vazifani muallim shogirdlarni oxirat azobidan saqlashni qasd qilish bilan ado etishi mumkin. Mana shu niyat ota-onha farzandini dunyo olovidan saqlashidan ko'ra muhimroqdir. Shuning uchun muallimning haqqi ota-onaning haqqidan ustun qo'yiladi. Chunki ota vujud va foniylar hayotning sababchisi bo'lsa, ustoz abadiy hayotning sababchisidir.

"A'llo" – oly zot, ya'ni Allah taolo. Surada inson Allohnинг o'z qudrati va hikmati bilan yaratilgani, Qur'on oyatlaridan ba'zilarining unutilishi Allohnинг irodasiga bog'liq ekani, ilohiy nasihatlar hammaga ham ta'sir etmasligi, oxiratdagи holatlar, Qur'ondagи shu kabi ko'p o'gitlar Ibrohim va Muso (a.s.)larga nozil etilgan sahifalarda ham mavjud ekani bayon etiladi.

**سَيِّدَ الْأَعْمَالِ  
سَيِّدَ الْأَعْمَالِ (Ey, Muhammad!) Eng oly zot bo'l mish Rabbingizning ismi bilan tasbeh  
ayting!**

**أَنَّذِي خَلَقَ فَسَوَىٰ  
3epo, U (barcha narsani) yaratib, barpo qilgan,  
وَالَّذِي فَرَّقَ فَهَدَى  
barchaga munosib yo'lni belgilab, (o'sha yo'lga) hidoyat qilib qo'ygan[2].**

YA'qubi Charxiy "al-A'llo" surasi tafsirida ustozning vazifasini quyidagicha belgilaydi: "Haqiqiy olimning nasibasi shuki, timmsiz pandu nasihat qilsin. Agar uning va'zi fosiqlar va hiylagar kishilarga og'ir botib, ular bu nasihatdan ibrat olmasalar ham nasihat qilishdan qaytmasin"[3,188].

Demak, Olimlar uch xil bo'ladi:

1. O'zini ham, boshqalarni ham halok etuvchi olimlar. Ular ochiqdan-ochiq dunyo talab qilganlar va unga yuz tutganlar.
2. O'zini ham, boshqalarni ham saodatga eltguvchi olimlar. Ular xalqni Zohir-u botinda Allohga da'vat qiladi.
3. O'zlarini halok qilib, boshqalarni saodatga yo'llovchi olimlar. Ular zohiran odamlarni oxiratga chorlaydi tashqaridan dunyoni tark qilganga o'xshab ko'rindi, lekin botini, asl maqsadi xalqni o'zi tomonga og'dirish yoki biror obro'ga ega bo'lishdir.

Mutasavvuf fikricha: "Sening nasibang shuki, haqiqiy nasihatchilar va voizlarning pandu nasihatini va suhbatini tark qilmagaysan, ularidan qochmagaysan, ularni dilingda yomon ko'rmagaysan"[3,188].

Ya'qubi Charxiy "Al-Maorij" surasida kofirlarning Payg'ambarimiz (s.a.v.) ni yolg'onchiga chiqarmoqchi bo'lganlari to'g'risidagi oyatni tafsir qiladi. Mutasavvuf shogirdlariga bid'at hamda zalolatdan uzoq bo'lishlikni tavsiya berib, bu yo'lga kirganlarning ko'rinishidan yaxshi odamga o'xshasada aslida qalbi noplari bo'lib, yuzida nur yo'qligini ta'kidlaydi. Demak, mutasavvif fikricha, bid'at va zalolat bilan qilingan uzoq toatdan, qalbdan qisqa toat afzaldir.

---

## ILMIY AXBOROT

Ya'qubi Charxiy shogirdlariga pirning huzurida o'tirganda tartibli bo'lishi, ustozidan nuqson qidirmasligi, suhbat va harakatiga e'tiroz bildirmasligini tavsiya beradi.

Demak, shogird avvalo qalbini jirkanch xulqlardan, mazmum - yomon sifatlardan poklab olishi kerak Chunki ilm - qalb ibodati, maxfiy namoz va Allohgga botiniy yaqinlikdir. Zohiriya a'zolar vazifasi bo'lgan namoz faqat hadas va nopliliklardan zohiriya tozalanish bilangina durust bo'ladi. Botinning ibodati va qalbning ilm bilan obod bo'lishi ham, faqatgina uni jirkanch xulqlar va razil sifatlardan poklash bilan yuzaga chiqadi. Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) hadislaridan birida: "Bu din poklik ustiga barpo bo'lgan," deganlar. Zohiran ham, botinan ham u shundaydir.

"Muzzammil" (ya'ni, o'rani yotuvchi) surasining nomi bilan ma'nodos "Muddassir" (ya'ni, burkanib olgan) bo'lgani uchun Ya'qubi Charxiy ham avvalgi tartibda uning leksik xususiyatlari e'tibor qaratadi va "muddassir" aslida "mutadassir" so'zidan yasalganini aytib o'tadi. Keyin bu suraning nozil bo'lish tarixini yozadi. Shuningdek, oyatlar mazmunini ochuvchi rasul va as'hob o'rtasidagi savol-javoblar, orifona baytlar, grammatic tahlillar va ta'villardan foydalanadi. Ba'zi o'rnlarda so'fiylarga murojaat qilib, oyatdan olishi kerak ma'noni uqtiradi:

"Sening bundan oladigan nasibang shuki, Haqning avliyolariga dushmanlik qiluvchilardan uzoq bo'l, ular bilan suhbat qurma, ularning inkorining shumligi sening iqroringga ziyon yetkizmasin"[5].

Ya'qubi Charxiy ta'llimotida shogirdning vazifalarini quyidagicha tahlil qiladi: "Bu faqir aytadi, haqiqiy musulmon odam doimo pandu nasihat eshitishining talabida bo'ladi. Avval nasihatni ota-onasidan, so'ng ustozidan oladi".

Bir otaning o'g'illari o'zaro muhabbatli va barcha maqsadlarda bir-birlariga yordam ko'rsatishlari lozim bo'lgani kabi, bir ustozning shogirdlari ham o'zaro muhabbatli bo'lishlari kerakdir. Ularning maqsadlari oxirat bo'lsagina o'talarida muhabbat uyg'onadi. Agar maqsadlari dunyo bo'lsa, o'rtada hasad va adovatdan boshqa narsa hosil bo'lmaydi.

Ya'qubi Charxiyning ta'llim-tarbiya haqidagi bu fikrlari hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Hozirgi kun talabi ham shuki, haqiqatan ham, biringchi ta'llim-tarbiyani ota-onan berishi, so'ng ustozning ta'llimi zarur. Demak, farzandning haqiqiy, to'g'ri tarbiyaga ega bo'lishi ota-onanining beg'araz yordami hamda ustozning pandu-nasihatni orqalidir.

Mutasavvufning fikricha, odamlarning haqiqiy pandu nasihatni qabul qilmasliklari va ulug'larning gapiga qulq solmasliklarining asl sababi ularning dunyoga, shuhrat va obro'ga, saltanat va hukumatga yetishish uchun bo'lgan kuchli muhabbatlari sabablidir.

Payg'ambarimiz (s.a.v.): "olimga yerdagi va osmondag'i barcha narsalar istig'for aytadi" – deganlarida yerdagi jonzotlar va osmonlardagi maloikalar istig'for aytishini nazarda tutilgan. Demak, yoshlar tarbiyasi va olimlarga berilgan e'tibor hozirgi kunda Yangi O'zbekistonning va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda ba'zi yoshlar kitob o'qish, ilm izlash o'rniga internet o'yinlari, kino-qo'shiqlar, be'mani eshitirishlarni ma'qul ko'rmoqda. O'zini ehtiyojini internetdan qondirish yo'liga o'tib, ota-onan va ustozlarini ortda qoldirmoqda. Nasihatlarni o'niga "axloqiy namuna"ni izlashmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida avvalo ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvarlar badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz.

Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug' bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo'lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir."

Ustozning mahorati bilan suhbatda yaxshi bo'lib, natija ijobji bo'lsa, ya'ni ruhiyatiga ta'sir qilsa, u baxtli kishi hisoblanadi. Inson jamiatda muvaffaqiyatga ega bo'lishi uchun xalqimizda ming yildan buyon shakllanib kelgan sharqona odob axloq meyor va mezonlari, diniy va milliy qadriyatlar, ota-onan yaxshi ustozning suhbat muhim ahamiyat kasb etadi.

### XULOSA

- Ya'qubi Charxiy fikricha, shayxlar muridlari shariat asoslarini puxta o'rgatgandan so'ng, tariqat ilmlarini o'rgatgan. YA'ni, tasavvuf shayxlari shariat hamda qalblarning himoyachilaridir.

Chunki, pir vujudida Payg'ambar (s.a.v.) norizo bo'ladigan sabab yo'q bo'lgan zotdir... U pokiza axloq uchun oyna bo'lgan kishidir;

- Mutasavvuf ustozni g'assolga muridni jonsiz vujudga o'xshatadi. Muridning pirning huzuridagi holati g'assol oldida turgandek bo'lib, istalgan tomonga aylantirilishi mumkin;

- Ya'qubi Charxiy qarashlarida inson o'zini anglagandan so'ng ustozlar o'rgatgan shariat ilmlarini egallab, Xudodan qanaqa ne'mat bo'lsa, o'sha bilan yashashi lozim. Bu fikr bilan insonni haqiqiy inson bo'lib shakllanishida uning jamiyat orasida bo'lishi va yaxshi insonlar bilan suhabat qilishining ahamiyati katta ekanligi ta'kidlanadi. Ya'ni, pir bilan suhabat orqali murid Allohga olib boradigan yo'lga chiqadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Яъкуби ибн Усмон ибн Маҳмуд ал-Ғазнавий ал-Чархий. Рисолаи унсия.ЎзРФА ШИ ҳазинаси, инн. № 5825/ Яъкуби Чархий. Рисолаи унсия. – Б. 5.
2. Раззокова М. Мавлоно Яъкуби Чархий. – Т.: Muhrarri, 2013. – Б. 34.
3. Шамсуддин Бобохонов., Абдулазиз Мансур. Нақшбандия тариқатига оид қўлёзмалар фиҳристи. -Т.: Мавороуннаҳр. 1993. – Б. 18.
4. Қуръони карим. // таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Т., "Munir", 2021. – Б. 591.
5. Фаззолий. Ихёу улумид-дин. Биринчи китоб. – Т.: Мовароуннаҳр, 2003. – Б. 19.
6. Мирзиёев. Ш. Янги Узбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – Б. 252.